

2021



# SAMARQAND VETERINARIYA MEDITSINASI INSTITUTI

«Veterinariya va chorvachilik  
sohalarini rivojlantirishda yosh  
olimlarning oʻrni» mavzusidagi  
magistrlar va iqtidorli talabalarning  
ilmiy – amaliy konferensiyasi

Ulugʻ allomalarimiz, oʻzlarining olamshumul kashfiyot  
va ixtirolarini sizning yoshingizda – ayni kuchga toʻlgan  
navqiron chogʻlarida amalga oshirganlar. Siz  
Xorazmiylar, Fargʻoniylar, Beruniy va Ibn Sino,  
Ulugʻbek, Navoiy va Boburlar, Buxoriylar, Termiziylar  
avlodisiz, Siz ham, buyuk ajdodlardan ibrat olib, hayotda  
moʻjizalar yaratishga astoydil intilishingiz kerak.

Shavkat Mirziyoyev

## TOʻPLAM

1-SON

SAMARQAND  
2021-yil, 3-4-iyun





## SAMARQAND VETERINARIYA MEDITSINASI INSTITUTI

MAGISTRLAR VA  
IQTIDORLI  
TALABALARNING  
ILMIY – AMALIY  
KONFERENSIYASI

## TO‘PLAMI

2021-YIL 1-SON

### MUROJAAT UCHUN

#### TELEFON:

(+99894) 572-04-07

(+99899) 311-76-59

#### ELEKTRON POCHTA MANZILI:

samvmi\_konferensiya@mail.ru

#### BIZNING MANZIL:

Samarqand shahar, M.Ulug‘bek  
ko‘chasi 77-uy

## KONFERENSIYANING IXTISOSLIK SOHALARI

### 1 VETERINARIYA

- 1.1 Veterinariya profilaktikasi va davolash
- 1.2 Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi

### 2 BIOTEXNOLOGIYA

- 2.1 Biotexnologiya
- 2.2 Chorvachilik va o‘simlik mahsulotlarini qayta ishlashtexnologiyasi

### 3 ZOOINJENERIYA

- 3.1 Qoramolchilik, yilqichilik va tuyachilik
- 3.2 Qo‘ychilik va echkichilik
- 3.3 Parrandachilik, asalarichilik, baliqchilik va quyunchilik

### 4 IQTISODIYOT VA AGROTEXNOLOGIYA

- 4.1 Iqtisodiyot va buxgalteriya
- 4.2 Agronomiya va o‘simlikshunoslik
- 4.3 Agrotexnologiya

Mazkur to‘plam yuqorida keltirilgan yo‘nalishlarda ilmiy – amaliy tadqiqotlarni olib borayotgan magistrlar hamda iqtidorli talabalarga mo‘ljallangan

#### Tahrir hay’ati:

B.f.d., professor X.B.Yunusov, v.f.d., professor A.S.Daminov, Iqtidorli talabalarining ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i S.Meyliyev, magistratura bo‘limi uslubchisi K.Akramov, ilmiy ishlar bo‘yicha dekan muovinlari: O.Maxmadiyorov, A.Ro‘ziyev, O.Achilov, R.Tuyg‘unov, Sh.Mirzaxodjayev

*To‘plamga kiritilgan materiallar va ma’lumotlar to‘g‘riligi hamda ishonchliligi uchun mualliflar javobgardirlar.*

*Tahrir hay’ati*

Turobova S., Iskanderov A., magistr<sup>lar</sup>  
Nurniyozov A.A., dotsent, ilmiy rahbar

## GIDROFIL O‘SIMLIKLARNI O‘RGANILISH TARIXI VA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

### Аннотация

Гидрофильная флора - флора растений, жизнь которых постоянно зависит от водной среды, делится на 3 группы. Гидрофиты - это растения, которые растут полностью погруженным в воду. Гелофиты - это растения, тела которых наполовину погружены в воду, а верхняя часть выступает из воды. Гигрофиты - это растения, произрастающие в условиях умеренного климата: по краям водоемов, в непостоянных водоемах. Продукция таких заводов имеет большое значение в народном хозяйстве.

### Summary

Hydrophilic flora - the flora of plants whose life is constantly dependent on the aquatic environment is divided into 3 groups. Hydrophytes are plants that grow with their whole body submerged. Gelophytes are plants whose bodies are half submerged and the upper part protrudes from the water. Hygrophytes are plants that grow in temperate environments: the edges of water bodies, in non-permanent water bodies. The products of such plants are of great importance in the national economy.

**Kirish.** O‘rta Osiyo gidrofil o‘simliklarni o‘rganishga oid tadqiqotlar o‘tgan asrning 60-yillarida boshlangan A.M. Muzaffarovning O‘rta Osiyo suv havzalari suv o‘tlari florasida monografiyasida O‘rta Osiyodagi yirik daryolar havzasi suv o‘tlar florasida bilan bir qatorda suv havzalarida uchraydigan yuksak suv o‘simliklarini tarqalishi va sistematikasiga oid ma’lumotlar ham uchraydi. Ushbu ma’lumotlarga ko‘ra Yo‘sintoifalarga mansub 29 turkumga mansub 31 tur suv havzalari va uning bo‘yida o‘suvi yo‘sinlarni keltirib o‘tgan.

Bundan tashqari 32 turkumga mansub 66 tur gulli o‘simliklarni tarqalganligi ham keltirib o‘tilgan gulli o‘simliklar orasida qo‘g‘a (*Typha*) turkumiga mansub 5 tur, g‘ichchak (*Potamogeton*) turkumiga mansub 9 tur, toron (*Polygonum*) turkumiga mansub 4 tur, qolgan turkumlar esa 1-3 turdan iboratligi ta’kidlangan.

K.Z. Zakirov “Zarafshon daryosi havzasi florasida va o‘simliklari” monografiyasida zarafshon daryosi havzasida uchraydigan 2588 tur yuksak o‘simliklar o‘sishi keltirilgan. SHundan o‘rta oqim havzasida turlar o‘sishi keltirib o‘tilgan. Bu monografiyadagi ma’lumotlar faqat konspekt xarakteriga ega bo‘lib, o‘simliklarning bioekologik xususiyatlari, taksonomiyasi, areal tiplari, tarqalish xususiyatlari, noyob va foydali turlar haqida ma’lumotlar mavjud emas.

T. Taubaevning “O‘rta Osiyo suv havzalari florasida va o‘simliklar qoplami hamda ulardan xalq xo‘jaligida foydalanish” monografiyasi suv o‘simliklarini tarqalishi ba’zi bioekologik xususiyatlari hamda ulardan xalq xo‘jaligining turli javhalarida foydalanish yo‘llari yoritilib berilgan. Mazkur monografiyada O‘rta Osiyoning yirik daryolari suv havzalarida o‘sadigan makrofitlar ya’ni yirik suv o‘tlari va suv o‘simliklarini 779 turlarini ro‘yxati hamda tarqalish joylari keltirib o‘tilgan. Ushbu ro‘yxatda suv o‘tlardan 6 turkumga mansub 39 tur uchrashini ta’kidlangan bo‘lib, ularning 29 turi xara (*Chara*) turkumiga mansub.

R.SH. SHoyakubov va boshqalar tomonidan mahalliy va introduksiya qilingan yuksak suv o‘simliklarining baliqchilikda foydalanish masalalari bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishida *Lemna* L., *Azolla* L., *Pistia* L. turlarini respublikamizning turli suv havzalaridagi mahsuldorligi, suvning tozalashdagi ahamiyati hamda baliqlarni oziqlantirishda olingan natijalar keltirib o‘tilgan.

Suv va suv bo'yi o'simliklari dorivor, vitaminli, oshlovchi moddali qurilishbob, ozuqabop va boshqa ko'plab ahamiyatli o'simliklarni o'z ichiga oladi. Yildan-yilga o'simlik xom ashyolariga bo'lgan talab oshib bormoqda. Bu o'rinda suv va suvbo'yi o'simliklarni ahamiyatini ikki guruhga: suv va suv bo'yi o'simliklarini tabiatdagi ahamiyati hamda bu o'simliklarni kishilar xo'jaligidagi ahamiyatiga ajratiladi. Bu masala o'zaro mustaqil bo'lsada, lekin bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Birinchi masala nazariy ahamiyatga ega bo'lib, chuqur ilmiy izlanishlarni talab etadi. Ikkinchi masala amaliy ahamiyat kasb etib, bu ham o'z navbatida ko'p tomonlama izlanishlarni belgilab beradi.

Ko'plab suv o'simliklari nobud bo'lgandan so'ng parchalanib mineral oziqlanish uchun muhim elementlarni suvda qoldiradi. Misol uchun qo'g'alar parchalangandan so'ng ko'p miqdorda fosfor, o'qbarg – kaliy va rdestlar – kalsiy elementlarini ajratadi. Suv botqoq o'simliklari suv havzalarini grunt qismini mustahkamlaydi va to'liqin harakati kuchini pasaytiradi. Natijada suv havzalarida boshqa organizmlarni yashashi uchun qulay muhit shakllanadi.

Suv-botqoq o'simliklari zooplanktonlarni, zoobentoslarni va boshqa suv hayvonlarini mavjud bo'lishida katta ahamiyatga ega. YA'ni, turli mollyuskalar, qisqichbaqasimonlar va suv hasharotlarini qishlashi uchun makon hisoblanadi; ko'plab baliq turlari uchun yashash joyi; bentos organizmlar uchun qulay substrat; suv qushlari, o'txo'r baliqlar, ondatra, nutriya va boshqa ko'plab suv jonivorlari uchun eng yaxshi ozuqa; qushlar uchun uyalash joyi va mo'ynali hayvonlarga uya vazifasini bajaradi.

Qamish (*Phragmites australis*) qog'oz –sellyuloza sanoati uchun eng yaxshi xom ashyo hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, qamish poyasi 65%, bargi 25% klechatka saqlaydi. Qamishdan ko'plab qurilish materiallari tayyorlanadi. Qamishdan quruq haydash yo'li bilan 3% gacha sirka kislota, 1,6% atseton, 3,6% qatron, 0,8% metil spirti olish mumkin. Bundan tashqari qamishdan elim va engil sanoat uchun turli xom ashyolar tayyorlashda foydalaniladi. Muallifning tahlillarga ko'ra, qamish ko'p miqdorda shakar moddasini to'playdi. Uning tarkibida 6,4% eruvchan uglevodlar mavjud. YAshil massasi tarkibida 33,1-51,5 mg/kg gacha karotin mavjud.

N.I. Voronixinning ma'lumotlariga ko'ra, qamish yaxshi em- xashak o'simligi hisoblanadi. Undan chorva mollari uchun silos pichan tayyorlashda foydalaniladi. Siloslangan qamishning 50,15 % hazm bo'ladi. Amudaryo, Sirdaryo va Ili daryolari atroflarida boqiladigan chorva mollari uchun foydalaniladigan silosda 20-30 % ini qamish tashkil etadi. Qamish pichani sut sifatini oshiradi. Uning yosh nihollari ozuqaviyligi jihatidan sulidan qolishmaydi. Olimning ta'kidlashicha, qamishning ildiz poyasi kofe surrogatlari tayyorlashda foydalaniladi.

Qo'g'alar ham xo'jalik ahamiyati jihatidan qamishdan qolishmaydi. Ular ondatralar, suv qushlari va boshqa suv hayvonlari uchun yaxshi ozuqa manbai. Qo'g'alar organlari tarkibida zararli kimyoviy moddalar mavjud emas. Ular kraxmal va shakar saqlovchi o'simliklar hisoblanadi. Qo'g'a ildizpoyasidan tayyorlangan un cho'chqalar, yirik shoxli mollar hamda qushlar uchun yaxshi ozuqa hisoblanadi.

Ko'pchilik suv-botqoq o'simliklari o'txo'r baliqlar uchun qimmatli ozuqa hisoblanadi. Bu o'simliklar oq amur balig'ini asosiy ozuqasi hisablanadi.

Suvqalampir (*Persicaria amphibium*) ko'p miqdorda efir moylari askorbin, xlorogin kislotalari saqlaydi. Urug'ida 20% gacha moy kislotalar aniqlangan. Moyning asosiy qismini mentol tashkil etadi. Tibbiyotda bu o'simlik nastoykasidan asabni tinchlantiruvchi hamda oshqozon kasalliklarida foydalaniladi. Qaynatilgan yalpiz (*Mentha*) ildizi ko'z kasalliklarida ishlatiladi. Suvpiyoz (*Butomus umbellatus*) oziq-ovqat sifatida kartoshka o'rnida foydalansa bo'ladi. Bargida ko'p miqdorda protein saqlaydi. Bundan tashqari ovqat hazm qilish, teri, jinsiy a'zolar kasalliklarida ham foydalaniladi. Solabning (*Orchis*) tibbiyotda ildiz tugunagi foydalaniladi, undan tayyorlangan kukun suv, vino yoki sut bilan aralashtirilgan holda oshqozon-ichak kasalliklarida hamda siydik pufagi kasalliklarida foydalaniladi.

Ryaska (*Lemna*) uy hayvonlari, ayniqsa tovuqlar va cho'chqalar uchun yaxshi em-xashak hisoblanadi. O'simlik tarkibida 30% gacha oqsil, 5% gacha yog'lar, 24-34% AEM, 3% fosfor, 6% kalsiy, 2% magniy, 20-25% klechatka saqlaydi. Ryaska ho'llik paytida vitaminlarga boy.

Keyingi yillarda suv o'simliklaridan suv ekosistemalarini monitoring qilishda ham keng foydalanib kelinmoqda. M.A. Larionova ning ma'lumot berishicha, bir urug'pallali suv o'simliklariga mansub turlarda Cd elementi REM ga nisbatan 1,70 marta, Cu elementi REM ga nisbatan 8,85 marta, Pb elementi 4,20 marta, Zn elementi 2,06 ko'p to'planadi. Toldoshlar oilasiga mansub suv o'simliklarida esa bu ko'rsatkichlar Cu elementi 7,32, Cd elementi 35,10, Pb elementi 2,40, Zn elementi 2,53 marta ortishi aniqlangan.

Bulardan tashqari suv va suv bo'yi o'simliklarni xo'jalik ahamiyati, ulardan oqilona foydalanish hamda suv havzalarini ifloslanishini baholashdagi bioindikatorlik xususiyatlarini o'rganishga oid tadqiqotlar MDH hamda boshqa chet el olimlari tomonidan keng tadqiq qilingan

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ларионова М. А. Содержание некоторых тяжелых металлов в биомассе водных и околоводных растений как показатель экологического состояния водоемов // Гидробиотаника: методология, методы: Материалы школы по гидробиотанике. – Борок, 2003.
2. Таубаев Т. Флора и растительность водоемов Средней Азии. –Ташкент, 1970.
3. Шоякубов Р.Ш., Мўминова Р.Н., Хасанов О. Интродуцент юксак сув ўсимликларининг “Қўқонспирт” ОАЖ оқова сувларидаги сапрофит ва ичак таёқчалари бактерияларининг умумий сонига таъсирини ўрганиш // Ботаника, экология ва ўсимлик муҳофазаси: Республика илмий-амалий конференци материаллари. – Андижон, 2007.

Sayidova M.M., talaba

Nurniyozov A.A., dotsent, ilmiy rahbar

## BIR HUJAYRALI YASHIL SUV O'TLARINING QISHLOQ XO'JALIGI VA SANOATDA TUTGAN O'RNI

#### Аннотация

Изучить полезные свойства одноклеточных зеленых водорослей, оценить их роль в животноводстве и народном хозяйстве.

#### Summary

To study the useful properties of single-celled green algae, to evaluate its role in animal husbandry and the national economy.

**Kirish.** Suvo'tlar tuban tuzilishga ega bo'lgan avtotrof o'simliklar bo'lib asosan suvda hayot kechiradi. Bunday suvo'ttoifalar hujayrasidagi pigmentlar, xromatoforlar, fotosintez natijasida hosil bo'ladigan organik modda, ko'payish usullari, xivchinlarining tuzilishlariga ko'ra bir necha guruhlarga bo'linadi. Ahamiyati jihatdan suvo'tlar orasida eng muhimlaridan biri yashil suvo'tlardir.

Yashil suv o'tlarning yashash muhiti okeandan tortib toza suvgacha har xil. Kamdan kam hollarda yashil suv o'tlarni quruqlikda, asosan tosh va daraxtlarda uchratish mumkin, ularning ba'zilar qor yuzasida ko'rinib turadi. Ular yorug'lik ko'p bo'lgan joylarda, masalan sayoz suvlar va suv havzalari uchratish mumkin, ba'zan cho'llarda va qumliklarda uchraydi.

Bir hujayrali suvo'tlar sanoatda ishlatish uchun judayam muhim ahamiyati bor, chunki ular o'z hayot faoliyati uchun quyosh energiyasi va tuzlardan tashqari hech qanaqa moddalarni

|                                                                                                                                                         |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| ANIQLASH .....                                                                                                                                          | 105 |
| 40. <b>Xamidov S.G., Fayziev U.M.</b> QORAMOLLAR TUBERKULYOZIDA ALLERGIK REAKSIYALAR MUAMMOLARI .....                                                   | 108 |
| 41. <b>Nazarov A.B., Abdimuminov E.I., Samadaliyev F., Nurimova G.T., Daminov A.S.</b> INVAZION KASALLIKLARGA QARSHI KURASHISH CHORA – TADBIRLARI ..... | 110 |
| 42. <b>Nazarov A.B., Mamatqulova N.I., Abdimuminov E.I., Daminov A.S.</b> QISHLOQ XO‘JALIK HAYVONLARI FASSIOLYOZI VA ULARNING TARAQQIYOTI .....         | 113 |
| 43. <b>O‘roqova M., Akramova M., Xushnazarov A.X.</b> QUYONLAR EYMERIOZINI DAVOLASHNING SAMARALI USULLARI .....                                         | 115 |

## 2. BIOTEXNOLOGIYA

### 2.1 Biotexnologiya

|                                                                                                                                                                    |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 1. <b>Aslamov D., Daminov M.A., Yunusov X.B.</b> BIR HUJAYRALI SUVO‘TLARNI O‘RGANISH TARIXI VA BIOTEXNOLOGIYADA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI .....                     | 118 |
| 2. <b>Eshbekova M., Daminov M.A., Yunusov X.B.</b> AZOTOBACTER AVLODI BAKTERIYALARINING TABIATDA TARQALISHI VA AHAMIYATI .....                                     | 121 |
| 3. <b>Тангирова С., Сафин М.Г.,</b> ИЗУЧЕНИЕ КОМПОНЕНТОВ ЭФИРНЫХ МАСЕЛ АНИСА (PIMPINELLA ANISUM L.) И ВОЗМОЖНОСТИ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В ЛЕЧЕБНЫХ И ДРУГИХ ЦЕЛЯХ ..... | 123 |
| 4. <b>Turobova S., Iskanderov A., Nurniyozov A.A.</b> GIDROFIL O‘SIMLIK LARNI O‘RGANILISH TARIXI VA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI .....                                 | 127 |
| 5. <b>Sayidova M.M., Nurniyozov A.A.</b> BIR HUJAYRALI YASHIL SUVO‘TLARINING QISHLOQ XO‘JALIGI VA SANOATDA TUTGAN O‘RNI. ...                                       | 129 |

### 2.2 Chorvachilik va o‘simlik mahsulotlarini qayta ishlashtexnologiyasi

|                                                                                                                                      |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 6. <b>Sayidxonov T.M., Xaydaraliyev R.R.</b> HALOL GO‘SHT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHGA BO‘LGAN TALABLAR .....                   | 131 |
| 7. <b>Yodgorov M.O., Fayziyev J.S.</b> SUTNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH NAZORATINI TASHKIL ETISH XUSUSIYATLARI ... | 133 |
| 8. <b>Yodgorova Sh., Xudayberdiyev A., Ishniyazova Sh.</b> IKKILAMCHI HAYVONOT XOM ASHYOSIDAN RATSIONAL FOYDALANISH .....            | 135 |
| 9. <b>Ataboyev O., To‘layev A.A.</b> YANGI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SUTNI QAYTA ISHLASH .....                                          | 137 |

## 3. ZOOINJENERIYA

### 3.1 Qoramolchilik, yilqichilik va tuyachilik

|                                                                                                                                                                                                     |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 1. <b>Gulbutayev B., Choriyev E., Umarov B., Madraximov Sh.</b> TURLI SELEKSIYAGA MANSUB GOLSHTIN ZOTLI QORAMOLLAR URCHITILAYOTGAN “NAVRO‘Z-NASLCHILIK” CHORVACHILIK MAJMUASI .....                 | 140 |
| 2. <b>Jiyanmurodova Sh.X., Akbarova G.V., Qurbonova Sh.</b> TURLI ETOLOGIK TIPDAGI SIMMENTAL ZOTLI URG‘OCHI TANALARNING O‘LCHAMLARI VA INDEKSI .....                                                | 143 |
| 3. <b>Raimova F.Sh., Qo‘chqorov A.N., Yerkinova G.X., Normuminova M.B., Sattorov F.R.</b> SIMMENTAL ZOTLI SIGIRLARNING SUT MAHSULDORLIGINING ISHLAB CHIQARISH TIPLARIGA BOG‘LIQLIGI O‘RGANISH ..... | 146 |